

YOSHLARNING MEHNAT BOZORIDAGI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING JAHON TAJRIBASI

Faxxodjonova E'zoza Nodir qizi

Jizzax politexnika institutu 3 - bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar bandligini ta'minlash va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bandlik va mehnat bozorini raqobatbardosh yosh mehnat resurslarni tayyorlash tizimi o'rganib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: resurs, yoshlar, mamlakat, resurs, aholi bandligi, ishsizlik, mehnat bozori, raqobatbardosh, bandlik dasturlari, xorijiy tajriba.

GLOBAL EXPERIENCE OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF YOUTH IN THE LABOR MARKET

ABSTRACT

this article provides information about the role of youth employment and their competitiveness in the labor market. The employment and labor market in industrially developed countries was studied and analyzed by the system of training competitive young labor resources.

Key words: resource, youth, country, resource, population employment, unemployment, labor market, competitiveness, employment programs, foreign experience.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda mamlakatda aholiga xizmat ko'rsatish, bandlik muammosini samarali hal

etish orqali ularning turmush darajasini yaxshilash, hozirgi kunda eng asosiy dolzARB muammolardan biri hisoblanadi. Turli xizmatlar ko'rsatish orqali:

birinchidan, aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari qondirilsa;

ikkinchidan, ish bilan band bo'lmasan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muammosi hal etiladi;

uchinchidan mamlakat aholisining turmush darajasi yaxshilanishi hamda aholi daromadlarining ko'payishiga olib keladi.

Shuning uchun ham tanlangan mavzu doirasidagi yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya va xizmatlar ko'rsatish orqali, ularni mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda munosib ish bilan ta'minlashga erishish ilmiy tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mehnat bozori, ayniqsa, uning yoshlar segmenti beqarorligi sharoitlari bandlik siyosatini yanada takomillashtirish va korxonaga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar bilan ishlay oladigan, strategik fikrlash, tovarlar va xizmatlarga talab tarkibidagi o'zgarishlarga tezkor va moslashuvchan javob qaytarish qobiliyatiga ega bo'lgan yosh xodimlar oqimini ta'minlash zaruratini belgilab beradi. Shu munosabat bilan ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirishda yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish alohida ahamiyatga ega. Ushbu tizimni bevosita iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlariga yo'naltirishga zarurat vujudga keldi.

So'nggi yillarda ishsizlarning bandlik xizmati organlarining xizmatlariga qiziqishining muayyan darajada pasayib ketganligi quyidagi shart-sharoitlar bilan izohlanadi:

taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinalining ishsizlar kasbiga mos kelmasligi;

bo'sh ish o'rinaliga to'lanadigan ish haqi miqdorining kamligi;

ish o'rinalining vaqtinchalik tavsifga egaligi;

taklif etilayotgan aksariyat bo'sh ish o'rinalidagi mehnat sharoitining og'irligi, zararli va xavfli ekanligi va h.k.

Respublikada yoshlar karerasini yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan chora tadbirlar yetarlicha emas. Bizningcha, buni amalga oshirish uchun umumta'lim muassasalarida o'qish boshlanishidan boshlashga bo'lg'usi kasbni ongli ravishda tanlashni ta'minlaydigan kasbga yo'naltirish vositalarini, mehnat bozorining hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlarini to'g'ri qabul qilishni, yosh mutaxassisni ishga joylashtirish va kasbiy muhitga moslashtirish mexanizmlarini ta'minlashi lozim. Bundan tashqari, psixologik-kasbiy yo'naltirish amaliyotini o'rganish va ushbu sohada ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha shug'ullanadigan maxsus respublika ilmiy-amaliy markazini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda kadrlarni takror ishlab chiqarish mexanizmi ham samarali faoliyat ko'rsatmayapti. Bu holat ta'lim xizmatlari bozoridagi taklif tarkibining mehnat bozoridagi talab tarkibi bilan yaxshi muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq. Qator ixtisosliklar bo'yicha kadrlar taqchilligining o'sib borishiga qaramay, bunday holat saqlanib kelmoqda, bu esa davlat va ta'lim strukturalarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi o'zgarishlarga sekin javob qaytarishidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida keng kamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, shu o'rinda ta'lim tizimidagi islohotlarni yo'nalishlarini belgilashda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kadrlarni taylorlash va takror ishlab chiqarish sohasidagi davlat siyosati xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida ishlab chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Nikluas Steiner. International Migration and Citizenship Today 1st Edition. USA. 2009. Brian Keeley. International Migration. The Human Face of Globalisation. France. 2009.
2. Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umirova, G. (2022). СОДЕРЖАНИЕ СТРЕСС-ТЕСТИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. InterConf.
3. Stat.uz